

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

NEMATJONOV Shaxboz Nematjon o'g'li
Sirdaryo viloyati IIB boshlig'ining o'rinbosari,
Tergov boshqarmasi boshlig'i
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13882378>

МА'МУРИЙ ЖАРИМА ЖАЗОСИНИ ИЖРО ETISHNING ILMIIY-NAZARIY TAHLILI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda mavjud bo'lgan ma'muriy jarima jazosi tushunchasi, uning maqsadi, mazmun mohiyati tadqiq qilingan. Shuningdek ma'muriy jarima jazosi bo'yicha o'zbek va xorijiy olimlarning fikrlari bilan ilmiy bahs munozaraga kirishilgan.

Ma'muriy jarima jazosini ijro qilishdagi mavjud muammolar va ularga amaliy echim sifatida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy jazo, ma'muriy majburlash chorasi, jarima, ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, ashyoni musodara qilish, maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum etish, haq to'lanadigan jamoat ishlari, ma'muriy huquqbuzar, sud.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛНЕНИЯ АДМИНИСТРАТИВНОГО ШТРАФА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрено понятие административного штрафа, его назначение, содержание, содержащееся в Кодексе Республики Узбекистан Об административной ответственности. Также был начат научный спор с мнениями узбекских и зарубежных ученых о наказании за административные правонарушения.

Выдвигаются предложения и рекомендации по существующим проблемам исполнения наказаний по административным штрафам и как практическое их решение.

Ключевые слова: административное наказание, мера административного принуждения, штраф, изъятие вещи с условием уплаты пошлины, конфискация вещи, лишение специального права (права управления транспортным средством, права на охоту), оплачиваемые общественные работы, административный правонарушитель, суд.

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE EXECUTION OF THE PENALTY OF ADMINISTRATIVE FINES

ANNOTATION

Annotation. This article explores the concept of administrative penalty, the purpose of which, the essence of the content, is contained in the Code of administrative responsibility of the Republic of Uzbekistan.

Also on the punishment of administrative fines, a scientific debate was initiated with the opinions of Uzbek and foreign scientists. Existing problems in the execution of the penalty of administrative fines and proposals and recommendations as a practical solution to them have been put forward.

Key words: administrative punishment, measure of administrative coercion, fine, seizure of a thing subject to payment of a fee, confiscation of a thing, deprivation of a special right (right to drive a vehicle, right to hunt), paid community service, administrative offender, court.

So‘nggi yillarda Respublikamizda qonun ustuvorligini ta‘minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, shaxslarning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish, qonunni buzgan shaxsni javobgarlikka tortish, jinoiy tajovuzlar natijasida fuqarolar va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ma‘muriy javobgarlik amaliyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan jazo turlaridan hisoblangan og‘irlik darajasi uncha yuqori bo‘lmagan, lekin ta‘sirchanlik darajasi va profilaktik jihatdan huquqbuzarga juda yaxshi ta‘sir qiluvchi jazo turi bu jarima hisoblanadi.

X.Bahromovning fikricha, **ma‘muriy jarima** – ma‘muriy qonunchilikni qo‘llash amaliyotida eng ko‘p va samarali qo‘llaniladigan ma‘muriy jazo choralardan biri ma‘muriy jazo chorasidir. Mazkur hammabop “universal” ma‘muriy jazo chorasini ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikda qayd etilgan deyarli barcha ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun qo‘llanilishi mumkin [1].

Ma‘muriy jarima – moddiy xususiyatga ega bo‘lgan ma‘muriy jazo chorasini bo‘lib, aybdor shaxsdan davlat hisobiga undirib olinadigan muayyan pul miqdorida ifodalanadi. Ma‘muriy jarimaning miqdori ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma‘muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo‘yilgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi. **Ma‘lumot uchun** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son farmoni bilan bazaviy hisoblash miqdori – **375 ming so‘m** etib belgilangan [2].

Fikrimizcha, ma‘muriy jarima jazosi – huquqbuzarning ongiga ta‘sir etish orqali, bevosita uning moddiy manfaatlariga ta‘sir qiladi. Bu choraning o‘ziga xos xususiyatlari yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi, ya‘ni huquqbuzar erkinligi cheklanmaydi, maxsus huquqdan mahrum qilinmaydi, hatto sud tomonidan ma‘muriy jarimaga tortilgan hollarda ham sudlanganlik huquqiy oqibatini keltirib chiqarmaydi. Shu bois, ma‘muriy jarima samarali jazo choralardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa – o‘ndan bir qismidan kam bo‘lmasligi kerak. Fuqaro va xizmatchilarga solinadigan jarimaning eng ko‘p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa – o‘n baravaridan oshmasligi kerak. Ba‘zi huquqbuzarliklar uchun bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin [3].

Amaldagi qonunchiligimizga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalardan so‘ng jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish muddatlari va tartibi quyidagicha belgilandi. Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o‘ttiz kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda – shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to‘g‘risida xabar berilgan kundan boshlab o‘n besh kundan kechiktirmay to‘lanishi lozim [4].

Biroq, yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan e‘tiboran oltmish kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan hollarda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmay qoldirilganligi to‘g‘risida xabar berilgan kundan e‘tiboran **o‘ttiz kundan** kechiktirmay to‘lashi kerak.

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo‘lmagan taqdirda, jarima ularning ota-onalari yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi. Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun solingan jarima huquqbuzar tomonidan tegishli bank muassasasiga to‘lanadi, huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida undirib olinadigan jarima bundan mustasno.

Ushbu jazo shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi yillar kesimida quyidagicha o‘z aksini topadi:

- 2020-yilda **233.308 ta** shaxsga;
- 2021-yilda **279.390 ta** shaxsga;
- 2022-yilda **316.205 ta** shaxsga;
- 2023-yilda **338.006 ta** shaxsga;
- 2024-yilning birinchi yarmida **175.988 ta** shaxsga qo‘llanilgan [5].

Nazarimizda, jarima jazosini ijro etish to‘g‘risidagi qaror turlari qonunchilikni tahlil qilish natijasida 3ga bo‘lish mumkin:

- 1) *Joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish;*
- 2) *Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni majburiy ijro etish;*
- 3) *Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni soddalashtirilgan tartibda ijro etish.*

Joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish. MJtKning 283-moddasi (*Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzilmaydigan hollar*)da Agar fuqaro o‘zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e‘tiroz bildirmasa hamda unga joyning o‘zida solinadigan jarimaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan oshmasa, yo‘l harakati qoidalarining buzilishi to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan esa faqat ushbu Kodeks 138-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzilmaydi. Jarima ma‘muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o‘zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarga qat‘iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi.

Fikrimizcha, qonunchilikda mavjud lekin umuman amaliyotda mavjud bo‘lmagan ushbu joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish ya‘ni MJtKning 334-moddasini qonunchilikdan chiqarib tashlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zero, joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni o‘zi amaliyotda mavjud emas va hozirgi axborotlashtirilgan texnologiyalar bilan ma‘muriy ishlarni yuritish tartibiga to‘g‘ri kelmaydi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni majburiy ijro etish. Huquqbuzar jarimani MJtKning 332-moddasida belgilangan muddat ichida to‘lamagan taqdirda, jarima solish to‘g‘risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan qoidalarga muvofiq jarimani **uning ish haqi yoki boshqa maoshidan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan** majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi.

Agarda jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo‘lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko‘ra undirib olishning iloji bo‘lmasa, uni undirib olish davlat ijrochisi tomonidan jarima solish to‘g‘risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Nazarimizda, bugungi kunda jarima solish to‘g‘risidagi qarorni majburiy ijro etish tartibi profilaktika inspektori faoliyatida ko‘proq muammolar mavjud. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) *profilaktika inspektorlari jarima solish to‘g‘risidagi qarorni majburiy ijro etishni nazorat qilish, ya‘ni undirish masalasi planshetni yetarli darajada tushunmaganligi sababli majburiy ijro xodimlariga berish tartibini bilmaydi;*

2) *sun‘iy jarimaga qo‘yilgan talab tufayli profilaktika inspektorlari o‘zining tanishlarini jarimaga tortishadi va bu muddat esdan chiqqanligi sababli turli intizomiy ta‘sir choralarini keltirib chiqaradi.*

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida quyidagi takliflarni berishni joiz topdik:

- **birinchidan**, profilaktika inspektorlari jarima solish to'g'risidagi qarorni majburiy undirish masalasi majburiy ijro xodimlariga o'tkazganini rahbariyat tomonidan nazorat qilish tizimini joriy etish;

- **ikkinchidan**, profilaktika inspektorlariga sun'iy ravishda plan qo'yish amaliyotini qo'llayotgan rahbarlarning intizomiy javobgarligini ta'minlash masalasini asosiy maqsad qilib belgilash.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ijro hujjatlari bo'yicha undirib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulkdan undirib olinishi mumkin emas. Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida qonun chiqaruvchining, insonparvarlik va demokratizm prinsiplarini amalda real qo'llanilishiga imkoniyat yaratib, **2020-yil 17-martdagi O'RQ-612-sonli qonuni** bilan MJtK quyidagi tahrirdagi "**Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi**" nomli yangi 332¹-modda bilan to'ldirilishi jamiyatiz tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi [6].

Jarima solish to'g'risidagi qarorni soddalashtirilgan tartibda ijro etish. Ilk bora jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilib, amalga oshirilishi quyidagicha belgilandi. Huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kun ichida jarima miqdorining yetmish foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan (30 %) qismini to'lashdan ozod qilinadi. Bunday jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning **soddalashtirilgan tartibi quyidagi holatlarda qo'llanilmasligi belgilangan edi:**

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun sud tomonidan jarima solinganda;
- jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;
- xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

Ammo, ta'kidlash kerakki, MJtKning 17¹-moddasining uchinchi qismida belgilangan Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan taqdirda, huquqbuzarlikning takroriyligi hisobga olinmaydi, biroq, MJtKning 321-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan (Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalari buzilishlariga doir ish yangitdan ko'rib chiqish uchun yuborilib, qaror bekor qilingan taqdirda, mazkur ish ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan u ilgari sodir etgan huquqbuzarliklarning takroriyligi inobatga olingan holda umumiy asoslarda ko'rib chiqilishi lozim) hol bundan mustasno.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ma'muriy jarimalarni to'lashda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratilishini, shuningdek sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan ma'muriy jarimalarga nisbatan ham jarima solish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilishini taqozo etmoqda.

Mazkur holatlarni inobatga olgan holda aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish va jarima yukini kamaytirish, qo'llanilgan jarimalarni ijro etish tizimini yanada soddalashtirish, shuningdek, davlat organlarining aholi bilan munosabatlarida ortiqcha byurokratik to'siqlarni va korrupsion omillarni bartaraf etish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99-son qarori** qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 2023 yil 1-maydan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qo'llanilgan jarimani ixtiyoriy to'lash tizimi yanada soddalashtirilishi belgilandi [7].

Unga ko'ra:

- huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab **o'n besh kun** ichida jarima miqdorining **50 foizini**, **o'ttiz kun** ichida **70 foizini** ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi;

- mazkur tartib sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etilishi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga mazkur Qarorda nazarda tutilgan talablardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga tegishli qonun loyihasini belgilangan tartibda kiritish yuklatildi.

Ushbu vazifalarni to'la bajarish hamda "Ma'muriy jarimalarni to'lashda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 332¹-moddasiga o'zgartish kiritish haqida"gi 2023-yil 18-aprel O'RQ-830-son qonuni[8] bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan jarimaning **50 foizini o'n besh kun ichida yoki 70 foizini o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'lash tartibi** joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartish kiritildi.

Mazkur tartib sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etilishi belgilandi. Mazkur qonun ma'muriy jarimalarni to'lashda jarimalar yukini kamaytirishga hamda ma'muriy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to'lash tizimini yanada soddalashtirishga, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi[3].

Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi quyidagi hollarda qo'llanilmaydi:

- transport vositalarini mast holda boshqarish;
- kema haydovchilarining kichik hajmli kemalarni mast holda boshqarishi;
- transport vositalari haydovchilarining va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi;

Mast holdagi haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish huquqbuzarliklar sodir etilganda; jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda; xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda".

Respublikamizda ushbu qonun 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirgan. Fikrimizcha, jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilmaydigan hollarga yana quyidagi qasddan sodir etiladigan qo'pol ma'muriy huquqbuzarliklarni ham kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- 41¹ -modda. Shahvoniy shilqimlik qilish;
- 183-modda. Mayda bezorilik;
- 188-modda. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish;
- 188¹-modda. Voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish;
- 189-modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish;
- 189¹ -modda. Tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish;
- 194-modda. Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik;
- 194¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablarini bajarmaslik;
- 195-modda. Ichki ishlar organlari xodimlarining o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish
- 195¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining **2023-yil 12-iyuldagi "Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i[9]**ga asosan yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda tayinlangan jarimani qaror chiqarilgan kundan boshlab **oltmish (60) kundan** kechiktirmay, ushbu qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to'g'risida xabar berilgan kundan e'tiboran **o'ttiz (30) kundan** kechiktirmay to'lashingiz lozim.

Mazkur qaror chiqarilgan kundan e'tiboran **oltmish (60) kun** o'tgach jarima to'lanmagan taqdirda transport vositangiz qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turiladi. Mazkur qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga yoki jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga uning nusxasini olgan kuningizdan boshlab **(10) o'n kun** ichida shikoyat berishingiz mumkin. Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita shikoyat yo'llangan sudga yuboriladi.

Jarima solish to'g'risidagi qarorga muvofiq jarima undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo'yilib, shu qarorni chiqargan organga, mansabdor shaxsga yoki sudga qaytariladi.

Majburiy ijroga qaratilgan jarima solish to'g'risidagi qaror ijro etilganidan so'ng davlat ijrochisi ijro ishini yuritishni tamomlash to'g'risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni chiqargan organga, mansabdor shaxsga) yoki sudga yuboradi.

Rossiya federatsiyasi ma'muriy huquqbuzarlik kodeksining 4.1.1.-moddasida Ma'muriy jarima tariqasidagi ma'muriy jazoni ogohlantirish bilan almashtirish ma'muriy jarima tariqasidagi ma'muriy jazoni ogohlantirish bilan almashtirish mexanizmi mavjud. Ushbu normaga binoan davlat nazorati (nazorat), munitsipal nazoratni amalga oshirish davomida birinchi marta sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik, agar ogohlantirish tariqasidagi ma'muriy jazoni tayinlash Rossiya Federatsiyasi subyektlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchilikning tegishli normasida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy jarima tariqasidagi ma'muriy jazo tegishli holatlar mavjud bo'lganda ogohlantirish bilan almashtirilishi kerak.

Yuqoridagi davlat qonunchiligidan shuni ko'rish mumkinki, ma'muriy jazoni almashtirish mexanizmi mavjud, ya'ni qanday jazo yengillashganda yoki og'irlashganda qaysi jazolar bilan almashtirish lozim. Yurtimizning ma'muriy qonunchiligida ushbu ma'muriy jazolarni almashtirish mexanizmi mavjud emas.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "Ma'muriy jazolarni almashtirish tartibi" nomli yangi norma qo'shish ehtiyoji mavjud.

Bundan tashqari, B.Abdullayev tomonidan jarima ijrosini yanada soddalashtirish yuzasidan quyidagi taklif ilgari surildi. Jumladan, radarlar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun 48 soat ichida jarima haqida qaror yozadigan vakolatli organga, ya'ni YPX markaziga yuboriladi. Vakolatli organ jarima solish haqidagi qarorni 15 kundan kechiktirmay chiqarishi kerak. Ana shundagina haydovchi jarimaga tortilmasligi belgilanishi to'g'risida takliflar berildi[10].

Fikrimizcha, quyidagi taklif jarima jazosini istisno etish holati hisoblanib, quyidagi tartibda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. **Ya'ni MJtKning "Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi" nomli 332¹-moddasini 3-qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

"Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun 48 soat ichida jarima haqida qaror yozadigan vakolatli organga, ya'ni YPX markaziga yuboriladi. Vakolatli organ jarima solish haqidagi qarorni 15 kundan kechiktirmay chiqarishi kerak. Agar ushbu muddatda qaror chiqarilmasa, huquqbuzar javobgarlikdan ozod etilishi zarur"

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. Baxramov X. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda jarima jazo chorasining tushunchasi va qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari //Journal of fundamental studies. – 2023. – t. 1. – №. 6. – s. 28-35.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-108-son farmoni. [Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-7059431>. Murojaat vaqti: 10.09.2024 y].

3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-97664>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

4. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 12-iyuldagi "Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 361-son buyrug'i. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6567881>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

5. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning 2024 yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari [Elektron manba: <https://stat.sud.uz/>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

6. O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 17-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-612-sonli qonuni. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-4766244>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99-son qarori. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6411366>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

8. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 18 apreldagi "Ma'muriy jarimalarni to'lashda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 3321-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi O'RQ-830-sonli Qonuni [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/6435560>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

9. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 12-iyuldagi "Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i. [Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6567881>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y].

10. Ichki ishlar vaziri o'rinbosari Bekmurod Abdullaev radar bo'yicha yangilik noto'g'ri talqin qilinganini ma'lum qildi. [Elektron manba: <https://uzreport.news/society/ichki-ishlar-vaziri-urinbosari-bekmurod-abdullaev-radar-buyicha-yangilik-notu-ri-tal-in-il>. Murojaat vaqti: 10.02.2024 y]